

Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun uzoq va o'rta muddatli strategik rivojlanish hamda raqobatbardoshlikni oshirish dasturi

3-bo'lim. "Xalqaro faoliyat".

Bo'lim vazifalarining bajarilishi uchun mas'ul — **xalqaro aloqalar boshqarmasi boshlig'i.**

Bo'limning maqsadi — **Toshkent kimyo-texnologiya institutini xalqaro ilmiy-ta'lim makoniga integratsiya qilish**, ya'ni uni internatsionallashtirish va milliy hamda jahon oliy ta'lim muassasalari reytinglarida yuqori o'rinlarni egallashga da'vogarlik qiluvchi **xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi sifatida muvaffaqiyatli pozitsiyalash.**

Maqsadli ko'rsatkichlar:

- talab yuqori bo'lgan oliy ta'lim muassasasi;
- tahsil olayotganlar umumiy sonida xorijiy fuqarolar ulushi;
- xalqaro, ayniqsa Markaziy Osiyo mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda ingliz tilida amalga oshiriladigan ta'lim dasturlarining keng ro'yxati;
- shartnomalar asosida xorijiy oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar va yuqori texnologiyali korxonalar bilan faol hamkorlik aloqalari;
- professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar umumiy sonida xorijiy professorlar, o'qituvchilar hamda tadqiqotchilar ulushi mavjud bo'lgan ko'p tilli ta'lim muhiti;
- keng xalqaro ishtirok bilan turli yo'nalishlardagi nufuzli tadbirlarning muntazam o'tkazib borilishi;
- xalqaro universitetlar tarmoqlari va uyushmalarida keng a'zolik.

Yuqorida ko'rsatilgan maqsadga erishish uchun, ustuvor tartibda quyidagi vazifalarni hal etish zarur:

1) Xorijiy hamkorlar bilan birgalikda amalga oshiriladigan ta'lim dasturlari va loyihalar sonini oshirish, jumladan, ikki diplom beriladigan ta'lim dasturlari hamda tarmoqli (qo'shma) ta'lim dasturlarini kengaytirish;

2) TKTI da tahsil olayotgan xorijiy fuqarolar kontingentini saqlab qolish va oshirish; ta'lim xizmatlari xalqaro bozorida institut pozitsiyalarini mustahkamlash, jumladan xorijda yangi geografik bozorlarni o'zlashtirish orqali (magistratura bosqichiga ustuvor e'tibor qaratgan holda);

3) Fundamental va amaliy tadqiqotlar sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, jumladan olimlar o'zaro almashinuvini yo'lga qo'yish, xorijiy hamkorlar bilan qo'shma laboratoriyalar va markazlar tashkil etish, ilmiy-texnik jihozlardan birgalikda foydalanish hamda qo'shma grantlarni amalga oshirish;

4) Ilmiy-pedagogik xodimlarning xalqaro akademik mobillik dasturlari sonini kengaytirish, jumladan stajirovkalar, malaka oshirish, kasbiy qayta tayyorlash va boshqa shakllar orqali.

3.1-tadbir.	Tadbirning vazifalari
Xorijiy hamkorlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari (QTD) va loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.	Bitiruvchilarni global professional mobillik va mehnat resurslari migratsiyasi sharoitida ishga joylashish imkoniyatlarini oshirgan holda tayyorlashni ta'minlash; talabalar va o'qituvchilar akademik mobillik hajmlarini oshirish.
3.1-bo'limning asosiy dasturiy tadbirlari va loyihalari	
3.1.1. Qo'shma ta'lim dasturlarini (QTD) ishlab chiqishda ustuvor yo'nalishlarni aniqlash. 3.1.2. QTD tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha yagona tartibni ishlab chiqish. 3.1.3. Xodimlar va ilmiy-pedagogik xodimlarning QTDni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha yetakchi xorijiy universitetlarda malakasini oshirish, shu jumladan til tayyorgarligi. 3.1.4. TKTI va xorijiy hamkor universitet talabalari uchun QTD doirasida ta'lim berish. 3.1.5. TKTI diplomi xorijda tan olinishi uchun shart-sharoit yaratish; oliy ta'lim diplomining umumiy yevropa ilovasi bilan mos keladigan ilovasini to'liq joriy etish. 3.1.6. Ingliz tilida amalga oshiriladigan ta'lim dasturlari ro'yxatini kengaytirish. 3.1.7. TKTI da o'qitiladigan xorijiy tillar sonini oshirish, ayniqsa sharq tillari (xitoy va boshqalar)ga alohida e'tibor qaratish. 3.1.8. TKTI da ko'p tilli ta'lim muhitini yaratish maqsadida ingliz tilini o'quv tili sifatida faol qo'llash, shu jumladan "Xorijiy til asosida ta'limni rivojlantirish" maqsadli dasturi doirasida.	
3.2-tadbir.	Tadbirning vazifalari
Institutda tahsil olayotgan xorijiy fuqarolar kontingentini oshirish.	TKTI ta'lim tizimining tezkor internatsionalizatsiyasi; ta'lim xizmatlari eksport hajmini oshirish; iqtidorli xorijiy talabalarni TKTI ga jalb qilish; universitetning xalqaro ta'lim bozorida nufuzini va raqobatbardoshligini oshirish.
3.2-bo'limning asosiy dasturiy tadbirlari va loyihalari	
3.2.1. Xorijiy talabalar kontingentini shakllantirish tizimini xalqaro ta'lim xizmatlari bozorini marketing tadqiqotlari asosida tahlil qilish. 3.2.2. TKTI ta'lim xizmatlariga talabni institutda tahsil olayotgan xorijiy talabalar orasida monitoring qilish. 3.2.3. Xorijiy davlatlar vazirliklari va idoralari, elchixonalari, davlat va tijorat tashkilotlari hamda ta'lim sohasidagi muassasalar bilan hamkorlikni rivojlantirish. 3.2.4. Birinchi kurs xorijiy talabalari uchun adaptatsiya kurslarini takomillashtirish. 3.2.5. TKTI ta'lim xizmatlarining yangi iste'molchilarini jalb qilish maqsadida xorijiy hamkorlar bilan birgalikda reklama va axborot kampaniyalarini dunyo bo'ylab o'tkazish. 3.2.6. Xorijiy va mahalliy talabalarning optimal nisbati bilan o'quv guruhlarini shakllantirish. 3.2.7. Yangi xorijiy talaba yetkazib beruvchi hamkorlarni izlash va ular bilan maxsus kelishuvlar tuzish.	
3.3-tadbir.	Tadbirning vazifalari

Xorijiy hamkorlar bilan birgalikda amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot va tijorat loyihalari sonini oshirish.	Institutning NIOKR(“Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari”)ni amalga oshirishdan tushgan daromadlaridagi xorijiy manbalar ulushini oshirish; yuqori impakt faktorli xorijiy jurnallarda nashrlar sonini ko‘paytirish; TXTIning O‘zbekiston milliy tadqiqot instituti sifatida xalqaro tan olinishini oshirish.
3.3-bo‘limning asosiy dasturiy tadbirlari va loyihalari	
1. TKTI olimlarini xorijiy grant tashkilotlari tanlovlarida, jumladan xorijiy hamkor universitetlar bilan birgalikda ishtirok etishga jalb qilish. 2. TKTI vakillarining xalqaro ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalar, tanlovlar, grantlar va shunga o‘xshash tadbirlarda qatnashish orqali ilmiy mobilligini rivojlantirish. 3. Xorijiy hamkorlar buyurtmalari asosida iqtisodiy shartnomaviy tadqiqotlarda ishtirok etish orqali ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyatni diversifikatsiya qilish doirasini kengaytirish. 4. Xorijiy kompaniyalar bilan qo‘shma ishlab chiqarish va korxonalarni tashkil etish. 5. Xalqaro nashrlar bilan hamkorlik shartnomalari tuzish; universitet olimlarining ilmiy nashrlarini tarjima qilish va yuqori reytingli xorijiy jurnallarda nashr etishni ta‘minlash; TKTI ilmiy jurnallarini jahon ilmiy periodika bozorida ilgari surish. 6. Yetakchi xalqaro institutsional reytinglar bo‘yicha reyting jamoalari bilan hamkorlikni rivojlantirish; TKTI ni xalqaro institutsional uyushmalarga kiritish: Yevropa universitetlar assotsiatsiyasi (European University Association – EUA), Xalqaro tadqiqot universitetlari konsortsiumi (International Research Universities Network – IRUN) va boshqalar. 7. TKTI ning ustuvor tadqiqot yo‘nalishlarini har tomonlama rivojlantirish va ularning eksport salohiyatini ta‘lim va ilmiy maqsadlarda ochishga e‘tibor qaratish. 8. TKTI bazasida o‘tkaziladigan xalqaro darajadagi tadbirlar (xalqaro ilmiy konferentsiyalar va boshqalar) hamda institut olimlarining tashqi tadbirlarda ishtirokini ko‘paytirish.	